

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**R.B.Karabayeva***Prunus persica* var. *Nectarina* o'simligi mineral va aminokislota tarkibi ..... 109

BIOLOGIYA

**Sh.Q.Yuldasheva, A.Z.Rasuljonov**

Vespidae oilasi vakillarini tutish va ularga tuzoqlar qo'yishning ayrim usullari ..... 114

**G.M.Zokirova, Sh.B.Yo'ldashev**

Markaziy Farg'ona hududida qayd etilgan gerpetofauna (Reptilia)ning Chelonia va Serpentes turkumi sistematikasi, morfologiyasi va tarqalish areali ..... 119

**I.B.Isaqov, A.K.Xusanov, K.Zokirov, O.T.Sobirov, N.D.Ibroximova**

Farg'ona vodiysida tarqalgan unsimon qurtlarning (Homoptera: Coccinea, Pseudococcidae) zoogeografiyasiga oid ma'lumotlar ..... 128

**M.A.Mamasolieva, L.A.Gafurova, O.B.Sharipov**

Sug'oriladigan o'tloqi alluvial tuproqlarni oksireduktaza fermentlar faolligiga kremniyli o'g'itlar ta'siri (Buxoro vohasi misolida) ..... 135

**Y.Qayumova, X.Komilova**

Farg'ona viloyati ichki suv havzalarida invaziv turlarining tarqalishi ..... 142

**A.A.Ma'rupov**

Farg'ona vodiysi uzunmo'ylov qo'ng'izlarining taksonomik reviziyasi va zamonaviy tur tarkibi ..... 147

**A.E.To'lqinov**

Janubiy Farg'ona kanali algoflorasining 2023-yil yoz mavsumidagi sistematik tahlili ..... 151

**S.M.Xaydarov, J.G'.Raximov***(L.Minor)*ning biologik, morfologik xususiyatlari va turlar tarkibi, erigan kislorod darajasini aniqlash ..... 155**G.M.Zokirova, Sh.B.Yo'ldashev**Yozyovon tabiat yodgorligida qayd etilgan tangachalilar turkumi (*Squamata*) vakillarining sistematikasi ..... 158**M.A.Muqimov**Farg'ona vodiysi suv havzalarida tarqalgan oddiy qirraqorin balig'i (*Hemiculter Leucisculus*)ning morfoekologik xususiyatlari ..... 164**M.M.Мирзахалилов**Некоторые морфобиологические показатели обыкновенной маринки (*Schizothorax eurystomus*) Шахриханся ..... 171

GEOGRAFIYA

**R.Y.Xoliqov**

Landshaftlarni funktsional rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ..... 175

**P.I.Xalikov, I.Y.Zikirov**

Роль климатических факторов в формировании горно-долинных парагенетических ландшафтов ..... 179

**O'.B.Badalov**

Qashqadaryo viloyatini rekreatsiya-turistik resurslaridan samarali foydalanishning geografik jihatlari ..... 185

**O.I.Abdug'aniyev, D.B.Kosimov**

Madaniy landshaft: umumiy g'oyalar va tushunchalar tadqiq etishdagi yondashuvlar ..... 190

**H.A.Abdualiyev**

Aholi hududiy tashkil etilishini o'rganishning geografik yo'nalishlari ..... 196

ILMIY AXBOROT

**O.Q.Abdullayev**

Jismoniy ta'limda o'quvchilarning ruhiyatini tarbiyalash va irodasini mustahkamlashning ahamiyati xususida ..... 202

**H.Arabboyev**

O'quvchilarni ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga tayyorlashda tabaqalashtirilgan jismoniy ta'lim texnologiyasi va shart-sharoitlari ..... 206

**MADANIY LANDSHAFT: UMUMIY G'UYALAR VA TUSHUNCHALAR TADQIQ ETISHDAGI YONDASHUVLAR****КУЛЬТУРНЫЙ ЛАНДШАФТ: ОБЩИЕ ИДЕИ И ПОНЯТИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЕ ПОДХОДЫ****CULTURAL LANDSCAPE: GENERAL IDEAS AND CONCEPTS, RESEARCH APPROACHES****Abdug'aniyev Olimjon Isomiddinovich<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti geografiya kafedrasida dotsenti, g.f.d.**Kosimov Dilshodbek Baxodirovich<sup>2</sup>**<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti ekologiya kafedrasida o'qituvchisi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada «madaniy landshaft» tushunchasi va uni tashkil etish bilan bog'liq g'oyalar tahlil qilingan bo'lib, madaniy landshaftlarni o'rganishdagi yondashuvlarning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, madaniy landshaftlarni shakllantirishda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ahamiyati tahlil qilingan.

**Аннотация**

В данной статье анализируется понятие «культурный ландшафт» и идеи, связанные с его организацией, а также рассматриваются теоретические и практические аспекты подходов к изучению культурных ландшафтов. Также проанализировано значение охраняемых природных территорий в формировании культурных ландшафтов.

**Abstrast**

This article analyzes the concept of "cultural landscape" and ideas associated with its organization, and also examines the theoretical and practical aspects of approaches to the study of cultural landscapes. The importance of protected natural areas in the formation of cultural landscapes is also analyzed.

**Kalit so'zlar:** ekologik karkas, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, biologik xilma-xillik, barqaror rivojlanish, madaniy landshaft, antropogen landshaft, aksiologiya, noosfera.

**Ключевые слова:** экологическое каркас охраняемые природные территории, биологическое разнообразие, устойчивое развитие, культурный ландшафт, антропогенный ландшафт, аксиология, ноосфера.

**Key words:** ecological network, protected natural areas, biological diversity, sustainable development, cultural landscape, anthropogenic landscape, axiology, noosphere.

**KIRISH**

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan jamiyatning barcha sohalarini barqaror rivojlanishini ta'minlanganlik ko'rsatkichi ekologik muammolarni hal etilganlik darajasi bilan belgilanmoqda. Bu boradagi dolzarb masalalardan biri–insoniyat ehtiyojlarini zarur darajada ta'minlash uchun butun ekotizimning barqaror faoliyat yuritishini saqlab qolishdan iborat [13; 29-32-b.]. BMT tomonidan 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasida qabul qilingan Rezolyutsiyada belgilangan 14 va 15-maqsadlar yechimi Ayti strategik rejasini amalga oshirish bilan uzviy bog'liqdir. Xalqaro miqyosda bu borada bir qator siyosiy va iqtisodiy majburiyatlar belgilanishiga qaramay BLXni sifat va miqdor jihatdan qisqarishi davom etmoqda. Tabiat merosi bo'lgan BLXni saqlab qolish va jamiyatni barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhofaza etiladigan tabiiy hudud(METH)lar tizimi muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan [14; 5-6-b., 1; 89-99-b.]. METHlarning milliy tizimi mamlakatdagi tipik, noyob va etalon geokomplekslarni, shu jumladan, madaniy landshaftlarni ham o'z ichiga olgan representativlikni o'zida to'liq aks ettirishi kerak. Bu tipik, noyob va etalon geokomplekslarni saqlab qolish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim bo'lgan geografik hodisa va jarayonlarning optimal meyorini ta'minlash imkonini beradi.

Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni tadqiq etishdagi ilmiy qarashlar o'ziga xos rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Jamiyatdagi ilmiy bilish ko'lamining kengayishi, ma'lumotlar bankining ortib borishi bilan tabiatning kishilik jamiyatiga va aksincha ta'sirlarni baholovchi turlicha

## GEOGRAFIYA

ilmiy qarashlar yuzaga keldi. Bugungi kunga kelib vaziyat tubdan o'zgardi, boshqa sohalarda bo'lgani kabi tabiiy resurslaridan foydalanishda ham xalqimizning ko'p yillik madaniyatini ilmiy asosda o'rganish, «oddiy» (primitiv) bo'lib ko'ringan malaka va ko'nikmalarni qayta baholash vaqti keldi [2].

Etnoekologik madaniyat darajasiga ko'tarilgan bunday an'analarga yuqori baho berib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Xalqlarimizning tabiatga uning boyliklarini asrab-avaylagan holda munosabatda bo'lish va umumiy suv resurslaridan birgalikda foydalanish borasidagi ko'p asrlilik an'analarga suyangan holda biz haqiqatan ham ulkan natijalarga erishamiz, deb ishonaman" deya ta'kidlaydi. Mamlakatimizning bugungi ekologik siyosatida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan ilmiy asosda foydalanish, har bir mintaqadan uning tabiiy sharoitiga mos keladigan uning imkoniyatlaridan to'la foydalanishga sharoit yaratadigan ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Madaniy landshaft - bu tabiiy va antropogen landshaftlarning tarkibiy qismlaridan iborat bo'lib, insonning muayyan amaliy ehtiyojlarini qondirish uchun ongli va maqsadli faoliyati natijasida shakllangan makon. «Madaniy landshaft» atamasi dastlab nemis geografi Otto Shlyuter tomonidan qo'llanilgan bo'lib, inson idrok etishi mumkin bo'lgan tabiiy va madaniy obyektlarning moddiy birligi sifatida tushuntirgan. O.Shlyuter madaniy landshaftlarni genezisiga ko'ra ularni shakllanishidagi asosiy funksiyani inson bajarishini asoslab bergan [12].

Madaniy landshaft konsepsiyasining rivojlanishiga amerikalik tabiiy-geograf Karl Zauer katta hissa qo'shdi. Karl Zauer «Landshaft morfologiyasi» kitobida madaniy landshaftni ma'lum bir hududda madaniyatlarining to'planishi va evolyutsiyasining makondagi aksi va tabiiy landshaftga ishlov berishning o'ziga xos yo'nalishi sifatida belgilaydi. «Madaniyat – omil (amaldagi omil), tabiiy muhit – vositachi, madaniy landshaft – natijadir» [11]. Karl Zauerning so'zlariga ko'ra, asosiy e'tiborni landshaftda insonlar tomonidan qoldirgan turmush tarzining «izlari»ga qaratish kerak. Shu bilan birga, madaniyat inson tajribasining yaxlitligi sifatida talqin qilinadi. Madaniyat yer yuzasining inson tomonidan yaratilgan ko'rinishini shakllantiruvchi asosiy kuchdir [11].

Rus geografi V.L.Kaganskiyning fikricha, Karl Zauer asarlarida bir xil yoki o'xshash tabiiy muhitda turli etnik guruhlar o'zlarini mutlaqo boshqacha tutishi, atrof-muhitga ta'sir qilish va uni muhofaza qilishdagi texnologiyalarining ham turlichaligi, xo'jalikni yuritish uchun turli yerlarni tanlashi nihoyatda muhim bo'lgan. Bu esa yagona tabiiy makonda turli madaniy landshaftlarning shakllanishiga olib kelgan [4].

Otto Shlyuter va Karl Zauerlar tomonidan «madaniy landshaft» tushunchasiga berilgan ta'riflar va ilmiy izohlar XX asrda G'arb ilmiy doiralarda ayniqsa, geograflar tomonidan ushbu yo'nalish rivojlantirilib borilmoqda. Madaniy landshaft konsepsiyasining shakllanishiga olib kelgan fundamental g'oyalarga Aleksandr fon Gumboldt tomonidan asos solingan [4]. Keyinchalik uning g'oyalar V.V.Dokuchayev, L.S.Berg, A.I.Voeikova, S.S.Neustruyev, V.P.Semenov-Tyan-Shanskiy, V.I.Vernadskiy, B.B.Rodoman kabi olimlar tomonidan takomillashtirilib borildi [6].

A.A.Abdulqosimov (2004) ning ta'rif berishicha, antropogen landshaft Yer landshaft sferasining kuchli o'zgargan va o'zgartirilgan qismi bo'lib, insonning xo'jalik faoliyati tufayli shakllangan. Ayrim manbalarda antropogen landshaft tushunchasining sinonimi sifatida "madaniy landshaft", "o'zgartirilgan landshaft", "texnogen landshaft", "antropogen geosistema", "bunyodkorlik geosistemalari" kabi terminlar ham qo'llaniladi [5].

Y.G.Saushkin (1946) «madaniy landshaftlarni o'rganish uchun geografiyaning alohida bir tarmog'i bo'lishi kerak» degan g'oyani ilgari suradi. Uning fikricha «madaniy landshaft–tabiiy muhitning uzviy elementlarini insonning xo'jalik faoliyati natijasida oqilona o'zgartirilgan qismidir» [2]. Bu g'oya antropogen landshaftshunoslikning vujudga kelishi shu davrning talabi ekanligini bildirsa, A.M.Ryabchikov (1972) landshaft sferasida tarixan tarkib topgan landshaftlarning barchasi inson ta'sirida muayyan darajada o'zgarganligini e'tirof etib, madaniy landshaftlarni ma'lum darajada o'zgartirilgan tabiiy landshaftlar bilan antropogen landshaftlarning hududiy birikmasidan iborat deb ta'kidlaydi [2]. V.I.Vernadskiyning (2002) fikriga ko'ra, rivojlanishining tabiiy bosqichiga ega bo'lgan biosferani o'rni madaniy landshaftlardan iborat bo'lishi kerakdir.

**NATIJAR VA MUXOKAMA**

**Madaniy landshaft** – muayyan maqsad bilan ilmiy asosda va insonlar manfaatini ko'zlab oqilona o'zgartirilgan landshaftlar. Madaniy landshaftda unumdorlik, iqtisodiy samaradorlik eng yuqori, kishilar hayoti uchun zarur sharoit qulay, tabiiy muhit sog'lom va go'zal bo'lishi kerak. Madaniy landshaftni ongli ravishda tuzish nafaqat landshaft komponentlari, balki uning morfologik tarkibiy qismlari (maskan, fatsiya) orasidagi bog'liqlikni o'rganishga asoslanadi. Madaniy landshaft birinchi navbatda nomaqbul tabiiy jarayonlarning oldini olish, inson hayoti uchun sog'lom muhitni yaratish, hududni oqilona tashkil qilishni ko'zda tutadi. Landshaftshunoslikning muhim vazifasi uning turi, o'zgarishi va mahsuldorligini oshirish yo'llarini o'rganishdan iboratdir.

Madaniyat bilan tabiatning o'zaro ta'siri va o'zaro aloqasining xususiyati madaniy landshaftning mohiyatini belgilovchi asosiy omil sifatida tavsiflanadi. Madaniy landshaftni tadqiq etish bo'yicha zamonaviy tadqiqotlarda bu masala turli yondashuvlar orqali tahlil qilinib kelinmoqda. Masalan, G.A.Isachenko quyidagi uchta asosiy yondashuvni belgilaydi: axborot-aksiologik, etnomadaniy, fenomenologik [10].

**Axborot-aksiologik yondashuv.** Axborot-aksiologik yondashuvi tadqiqotchilardan Y.A.Vedenin va M.E.Kuleshovalar tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuv madaniy landshaftni landshaft darajasidagi hududiy birlik sifatida baholash jarayonini o'z ichiga oladi [10]. Natijada, madaniy landshaftni shakllanishi bilan bog'liq tajribalar va urf-odatlar ma'lumot shaklida har bir etnosda avloddan-avlodga o'tadigan ma'naviy va intellektual qadriyatlar sifatida muhim rol o'ynaydi. P.N.Savitskiy (1927) har bir etnosni yagona tizim holda shakllanishiga sabab bo'ladigan joylarni insonlarning "Tug'ilgan joyi" tushunchasiga mos analog sifatida etnoslarning "Rivojlanish joyi" deb ataydi. Bu joy va uning tabiiy iqlim sharoitiga kishilarning turmush tarziga, xo'jalik yuritish tizimi va madaniyatiga o'zining sezilarli ta'sirini o'tkazadi [2]. Bu ta'sirga moslashish mexanizmi ishlab chiqiladi va avloddan-avlodga berib berib boriladi. Bunday ma'naviy va intellektual qadriyatlar insonda landshaft va uni komponentlarining ta'sirini o'zida sinovdan o'tkazish orqali shakllanib boradi.

Aksiologiya (yunoncha axio– qadriyat va logos – fan, ta'limot) – qadriyatshunoslik, ma'naviy hodisalardan biri bo'lgan qadriyatlar sohasini o'rganadigan, uning qonun va kategoriyalarini tadqiq qiladigan ilm yo'nalishi, qadriyatlar haqidagi fan. U XIX asrning ikkinchi yarmida nemis qadriyatshunosi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapi tomonidan ilmiy tushuncha sifatida fanga kiritilgan. Aksiologiya aksiologik ong, qadrlash tuyg'usi, aksiologik bilish, qadrlash tamoyiliga tayanib to'plangan qadriyatlar to'g'risidagi bilimlar sistemasidir. Aksiologiya «qadr», «qadrlash», «qadriyatlar», «qadriyatlar tizimi» kabi aksiologik kategoriyalarni, ularning turli shakllarini o'rganadi. Qadriyatlar tizimining ijtimoiy taraqqiyotga bog'liqlik qonuni, qadriyatlar tizimining o'zgarishi va takomillashuvi bilan bog'liq aksiologik qonunlar ham aksiologiya shug'ullanadigan masalalar doirasiga kiradi.

Axborot-aksiologik yondashuv asosida «madaniy landshaft» konsensiyasini ishlab chiqish «Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya» (1972) va «YUNESKONing Butunjahon merosi konvensiyasini qo'llash bo'yicha yo'riqnomasi»ga (1992) asoslaniladi. Unga ko'ra madaniy landshaft tarixiy-madaniy meros obyekti hisoblanadi [9].


**Etnomadaniy yondashuv.** Ushbu yondashuv doirasida madaniy landshaft etnomadaniy landshaftshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqiladi. Natijada madaniy landshaft landshaftshunoslik, etnologiya va toponimika, shuningdek, antropogeografiya bilan chambarchas bog'liq bo'lgan boshqa tabiiy va gumanitar fanlarning ilm sohalari tutashgan qismida vujudga kelgan ilmiy yo'nalish sifatida e'tirof etiladi. Etnomadaniy yondashuvi tabiat–inson–jamiyat munosabatlari natijasida mintaqada shakllangan milliy madaniyat va qadriyatlaridan inson tomonidan foydalanish jarayonini o'z ichiga oladi.

Tilshunos olim N.I.Tolstoy (1995) tomonidan fanga kiritilgan bu ibora bo'yicha, etnomadaniy landshaft bu- an'anaviy etnik landshaftdir. Uning ajratishni asosiy mintaqaviy-mahalliy mezonlari sifatida an'anaviy tabiatdan foydalanish shakllarini saqlanganligi, an'anaviy qurilish va arxitekturaning mavjudligi, til va folklor an'analarning saqlanganligi, an'anaviy etiqotga amal qilish, joyning timsoli va nomining saqlanganligi kabi xususiyatlar

## GEOGRAFIYA

olinadi. Shu bilan birga etnos vakillarining o'zini qaysi subetnik madaniy qatlamga mansubligini tan olishi, masofadan yoki yaqinlashishiga qarab markazni o'zgarib borishi tamoyili e'tiborga olinadi [2].

Mazkur yondashuv V.P.Semenov-Tyan-Shanskiy, L.S.Berg va boshqa tadqiqotchilarning asarlarida keltirilgan g'oyalar asosida rivojlantirilgan. Etnologik-geografik yondashuv landshaftni murakkab tabiiy – madaniy majmua sifatidagi baholashni asoslab beradi. Undagi asosiy tushunchalari «tabiiy landshaft» va «etnos»dir [8]. Madaniy landshaftni bir butun o'rganishda V.N.Kolutskov (2009) faqatgina etnolandshaftni alohida olingan komponentlarini emas, balki ular o'rtasidagi ichki (tizimli) aloqalarni o'rganishga etibor qaratadi (1-rasm).



### 1-rasm. Etnomadaniy landshaftni tarkibiy qismlari (V.N.Kolutskov, 2009).

Etnoekologik g'oyalarning rivojlanishida antropogeografiyaning asoschisi bo'lgan F.Ratselning asarlari muhim rol o'ynagan. U «davlatga tirik biologik organizm sifatida qarab, u yerda yashovchi etnoslarning yer va uning tabiiy sharoiti bilan yaqin va uzluksiz aloqadorlikda bo'linishi»ni ta'kidlaydi. Uning fikricha, etnoslarning rivojlanishida ularning joylashgan o'rni bilan bir qatorda, aholi zichligi ham salmoqli o'rin egallaydi, hamda aholining zich bo'lishi nafaqat xalqlarning jismoniy rivojlanishiga balki, madaniyatning o'sishiga ham turtki bo'ladi.

**Fenomenologik yondashuv.** Gusserl Edmund – nemis faylasufi, fenomenologiya asoschisi hisoblanadi. Fenomenologiya tushunchasi ongning «intensionalligi» (uning obyektiga yo'naltirilganligi) – «subyektsiz obyekt yuk» degan subyektiv idealistik tamoyilni mustaxkamlashdan iborat. Bugungi kunda fenomenologiya yo'qotilgan va unutilgan qadriyatlarni topishga ko'mak beruvchi falsafiy arxeologiya sifatida talqin etilib kelinmoqda. Ushbu yondashuv asoschisi V.Kaganskiyning fikriga ko'ra, «madaniy landshaft - bu yerdagi makon yetarlicha darajada katta bo'lgan odamlar guruhining yashash muhiti hisoblanadi. Agar bu makon bir vaqtning o'zida yaxlit va tabaqalashgan bo'lsa, hudud utilitar (foyda olishga intilish), semantik (uzoq tarixiy davr davomida insonni tabiatga bo'lgan munosabatini ifodalaniishi) va ramziy (aqida, e'tiqod, maslak) jihatdan o'zlashtirilgan bo'ladi». Bu yondashuv tadqiqotchilar O.A.Lavrenova va V.V.Abashevlar tomonidan asoslab berilgan[6].

Har qanday madaniy landshaftni o'z jamoasi bo'ladi, bu jamoa landshaftni tarkibiy qismi hisoblanib, uni o'zini ona landshafti (boquvchi landshaft kabi) deb hisoblaydi[2]. Masalan,

etnometeorologiyada ob-havoni, ekinning hosildorligini, daryo suvining miqdorini, tuproqning yetilish vaqtini aniqlashda joyning mintaqaviy xususiyatlari va jonli tabiatning fenologik o'zgarishlari hisobga olinadi. Bugungi kunda etnometeorologiya xalq meditsinasi, etnozologiya, etnobotanika, paleoetnologiya kabi yo'nalishlar bilan uyg'unlikda rivojlanmoqda [Y.Axmadaliyev].

Barqaror rivojlanishni ta'minlashning innovatsion yondashuvi sifatida «yashil iqtisodiyot» yoki «yashil makon»ni yaratish muammolari xalqaro iqtisodiy, ekologik, investitsion forumlarda muntazam ravishda muhokama etib kelinmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha BMT tomonidan qabul qilingan bir qator konvensiyalar, strategik reja va kelishuvlarda kelajakda madaniy landshaftlarni yaratish va butun Yer sayorasini qamrab olishi bo'yicha ustuvor vazifalar belgilanmoqda. Chunki, 1980-yilida chop etilgan «Global 200» ma'ruzasida ilk marotaba BLX jahon ekotizimining asosi ekanligi va uni tanazuli insoniyatni halokatga olib kelishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [1]. Shu bois, bu masalalar yechimida BLXni saqlab qolish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga asos bo'luvchi ekologik karkasni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ekologik karkas konsepsiyasida muhofaza etiladigan tabiiy hudud(METH)lar tizimini takomillashtirish bosh vazifa sifatida singdirilgan. Bu orqali, bir vaqtning o'zida mintaqada qulay ekologik muvozanatni uzoq vaqt saqlab turish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan xo'jalik faoliyatini yuritish imkoniyati yaratiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, hozirgi kundagi muhim vazifa inson tomonidan o'zgartirilgan landshaftlarni madaniy landshaftlarga aylantirishdir. Bu ishlarning markaziy vazifasi madaniy landshaftlarni shakllantirishdir. Bu vazifani bajarishda har biri uzviy bog'langan ko'pgina tadbirlar amalga oshiriladi. METHlar madaniy landshaftni muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki ular madaniy landshaftlarning yuqori mahsuldorligi va iqtisodiy samaradorligini oshirishda, tabiiy resurslarni qayta tiklashda, noyob xususiyatlarini muhofaza qilishda, inson hayoti uchun qulay tabiiy muhitni saqlashda muhim rolni bajaradilar.

Landshaftning barqarorlik ko'rsatkichini belgilashda yoki uni baholashda tadqiqotchilar orasida turlicha fikrlar mavjud. Bu borada, madaniy landshaftlar barqarorligini baholashda landshaftni tashkil qiluvchi komponentlar va omillar barqarorligini aniqlab olishning ahamiyati kattadir. Masalan, gidroiqlim, geologo-geomorfologik, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi kabi komponentlardan qaysi biri qanchalik beqaror bo'lsa landshaft ham shunchalik beqaror va tashqi kuchlar ta'sirida shunchalik o'zgaruvchan bo'ladi yoki aksincha. Nemis olimi X.Poyker (1983) madaniy landshaftlarni shakllantirishning muhim komponenti sifatida o'simliklar va tuproq qoplamini e'tirof etadi.

Masalan, muhofazaga olingan daraxtzordagi tol, terak, jiyda, turong'il va boshqa o'simliklarning har biri bir vegetatsiya davomida 200 m<sup>3</sup> gacha suvni bug'latib, o'ziga xos «biologik drenaj» vazifasini bajaradi, ya'ni ularda suvni bug'latish intensivligi yilni nam yoki quruq bo'lishiga bog'liq [1, 2]. Daraxtlarning yuqoridagi xususiyati hisobiga O'rta Osiyodagi paxtachilik mintaqalarida ekinlarni sug'orish normasi 30-50% ga kamaygan. Bir gektar o'rmon bir yilda 18 mln m<sup>3</sup> havoni tozalaydi yoki 1 ga suv havzasiga nisbatan 10 marta ortiq havoni namlaydi va salqinlashtiradi. Shuning uchun ham har bir madaniy landshaftni boyitish va muhofaza qilishda o'simlik dunyosiga katta e'tibor berilmog'i lozim.

Modda va energiyaning almashinishi yuqori va ekologik sharoitning xilma-xilligi oqibatida organik hayotga boy bo'lgan landshaftlarning o'rtasidagi oraliq polosalar, ya'ni landshaft ekotonlari ham himoya zonalarini sifatida muhim ahamiyatga ega. Ekoton–tutashgan landshaftlar o'rtasida, tabiiy geografik jarayonlarning birmuncha faollashganligi, ekologik sharoitlarning rang-barangligi va shu tufayli, tirik moddaning yuksak faolligi bilan tasvirlanuvchi eniga keng bo'lmagan va bo'yiga cho'zilgan hudud. Masalan, landshaft va uning morfologik birliklarining (fatsiya va urochishe) chegaralari mahalliy, yirik landshaftlarning (zona, balandlik mintaqasi, okrug, provinsiya) chegaralari esa regional ekotonlar hisoblanadi. Barcha ekotonlar ekologik karkas tarkibida biokimyoviy to'siq, salbiy tabiiy va antropogen ta'sirni yumshatuvchi bufer zona vazifasini bajaradi.

A.G.Isachenkoning fikricha, hozirgi zamon landshaftlarining ko'pchiligi insonning nooqilona faoliyati natijasida o'zgartirilgan bo'lib, ular madaniy landshaftlarga aylantirilishi lozimdir. Madaniy landshaftlarning tuzilishi muayyan maqsad bilan ilmiy asosda va jamiyat manfaatlarini ko'zlab oqilona o'zgartirilgan bo'ladi. Bunday landshaftlarning eng asosiy xususiyatlari yuqori mahsuldorlik, iqtisodiy samaradorlik va inson hayoti uchun qulay ekologik sharoitning bo'lishi bilan belgilanadi.

## GEOGRAFIYA

Landshaftlarning iqtisodiy samaradorligini oshirishga tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va suv, tuproq, biologik resurslarning qayta tiklanishi asosida erishiladi [11].

**XULOSA**

Madaniy landshaftning o'zgarishi, tabiatning rivojlanishi va unga inson tomonidan kiritiladigan o'zgartirishlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar bilan tavsiflanadi. Har bir landshaft kabi madaniy landshaft mahsuldorlik xususiyatiga ega. Mahsuldorlik esa madaniy landshaftning tabiiy xususiyatlari va insonning o'zgartiruvchi harakatiga bog'liq. D.L.Armand aytganidek, haqiqiy madaniy landshaftda mahsuldorlik va ekologik hamda madaniy-estetik maqsadlar bir-biriga qarama-qarshi bo'lmay, balki bir-biri bilan mos tushadi va bir-birini to'ldiradi. Masalan, barpo etilgan o'rmonlardan sanitariya-gigiyena, iqtisodiy, meliorativ, ekologik va estetik maqsadlar uchun ham foydalanish mumkin. Yuqoridagi barcha maqsadlarni amalga oshirishning muhim yo'li landshaft va uning tarkibiy qismlarini normal faoliyatini ta'minlash, imkoni boricha tabiiy sturukturasi hamda unga qilinadigan ortiqcha antropogen «tazyiq»dan saqlashdir [5].

Agrolandshaftlarni ekologik jihatdan optimallashtirishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni tavsiya etadilar: tuproq eroziyasi va defilyatsiyasini oldini olish; tuproqni qaytadan zichlanishiga yo'l qo'ymaslik; suv va tuproq qoplamini ifloslantirmaslik; mineral o'g'itlar va zaharli kimyoviy o'g'itlardan meyorida foydalanish; tuproq qoplamidagi organik moddalarning kamayishi, sho'rlanishi, botqoqlanishi, tuproq mikroflora va mikrofaunasini muhofaza qilish; suv havzalarini eftroflanishining oldini olish; ekinzorlar atrofida ihotazorlarni barpo etish; daryo, kanal, kollektorlarni suvni muhofaza qilish tegralarini yaratish; aholi punktlari hududlarida va yo'l bo'ylaridagi daraxtzorlar va yashil maydonlarni tashkil qilish; muhofaza etiladigan hududlar tarmoqlarini shakllantirish; agrolandshaftni ekologik barqarorligini saqlashga yordam beruvchi turli tadbirlarni amalga oshirish.

Bu yerda METH tizimini shakllantirishga alohida etibor berilgan. Mamlakat hududida METHlar tizimini yaratish va uning ekologik imkoniyati va geografik xilma-xilligini barpo etmasdan turib hozirgi agrolandshaftlarni optimallashtirish mumkin emas. Ular har bir xo'jalikda urochishe (makon) kattaligida ekinlarning umumiy maydoni 0.5-1% ni ajratishni tavsiya etadilar. Shunday qilib, agrolandshaftlar katta maydonni egallagan Farg'ona vodiysida, shu jumladan, Farg'ona viloyati hududida milliy bog'lar, qo'riqxonalar, buyurtma qo'riqxonasi, urochishe darajasidagi mikroqo'riqxonalar (tabiat yodgorliklari bilan birgalikda) hamda METHlar tizimiga kiruvchi boshqa hududlarni ham kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Abduganiyev O.I. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini takomillashtirish va ulardan foydalanishning geoeologik asoslari (Farg'ona vodiysi misolida) // G.f.d. (DSc) ilm. dar. olish uchun taqdim. et. diss. –T., 2023. –291 b.
2. Ahmadaliyev Y.I. Yer resurslaridan foydalanish geoeologiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 340 b.
3. Vernadskiy V.I. Biosfera i noosfera. Moskva, 2002. –576 s.
4. Dirin D. A. Vliyaniye idey A. Gumboldta na formirovaniye i razvitiye geografii kulturi i konsepsii kulturnogo landshafta // Gumboldtovskiye chteniya: materialy mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii. // Barnaul: Izd-vo AltGTU. –2005. – S. 16–25.
5. Zokirov Sh.S. Antropogen va amaliy landshaftshunoslik. –T.: Universitet, 1998. –66 b.
6. Kaganskiy, V. L. Landshaft i kultura // Obshchestvenniye nauki i sovremennost. –1997. –№ 1. – S. 134 – 145.
7. Kalutskov V.N. Landshaft v kulturnoy geografii. –M. : Noviy xronograf. –2008. –320 s.
8. Kalutskov V.N. Etnokulturnoye landshaftovedeniye // Vestn. Mosk. Un-ta. Ser. 5. Geografiya. –2006. – № 2. – S. 6–12.
9. Konvensiya ob oxrane vsemirnogo kulturnogo i prirodnoogo naslediya. Generalnaya konferentsiya Organizatsii Obyedinennix Natsiy po voprosam obrazovaniya, nauki i kulturi, Parij, 17 oktobra po 21 noyabrya 1972 g.
10. Kuleshova M.YE. Kulturniye landshafti: obshchiye predstavleniya, ponyatiya, podxodi k otsenke. Ekologicheskoye problemi soxraneniya istoricheskogo i kulturnogo naslediya. –M. : Rossiyskiy nauchno-issledovatel'skiy institut kulturnogo i prirodnoogo naslediya. –2000. –S. 37–52.
11. Ragulina M.V. Klassicheskaya konsepsiya kulturnogo landshafta Karla Zauera: istoriya i sovremennost // Izvestiya Irkutskogo gosudarstvennogo universiteta. –2013. –T. 6, № 1. – S. 177.
12. Streletskiy V. N. Kulturno-landshaftniye issledovaniya v Germanii: traditsii i sovremennost // Kulturniy landshaft: teoreticheskoye i regionalniye issledovaniya. // –M.: Izd-vo MGU. –2003. – S. 42.
13. Ursul A.D. Stanovleniye ustoychivoy sivilizatsii: noviye globalniye seli // Filosofiya i obshchestvo. 2016. № 1 (78). –S. 29–56.
14. Sepp K., Kaasik A. Development of National Ecological Networks in the Baltic Countries in the framework of the Pan-European Ecological Network. IUCN Office for Central Europe. – Warsaw, 2002. – 183 p.